



## PRINCIPLES AND METHODS OF RESEARCHING THE NATURAL RESOURCES OF THE NUROTA-KOYTASH BOG

*Elbek Kamolov*

*Lecturer*

*Jizzakh State Pedagogical Institute*

*Jizzakh, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Nurota-Koytash bog, Savulbel pass, Koytash mountains, Sangzor valley, landscape, simple gray soil, landscape zone, principle, method.

**Abstract:** This article provides information about the principles and methods used in the study of natural resources and landscapes of the Nurota-Koytash bog.

**Received:** 12.11.23

**Accepted:** 14.11.23

**Published:** 16.11.23

## NUROTA-QO'YTOSH BOTIG'I TABIIY RESURSLARINI TADQIQ ETISHDAGI TAMOYILLAR VA METODLAR

*Elbek Kamolov*

*o'qituvchi*

*Jizzax davlat pedagogika instituti*

*Jizzax, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Nurota-Qo'ytosh botig'i, Savulbel dovoni, Qo'ytosh tog'lari, Sangzor vodiysi, landshaft, oddiy bo'z tuproq, landshaft zonasi, prinsip, metod.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Nurota-Qo'ytosh botig'i tabiiy resurslari, landshaftlar tadqiq etishda foydalanilgan tamoyillar va metodlar haqida ma'lumotlar berilgan.

## ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ БОЛОТА НУРОТА-КОЙТАШ

*Эльбек Камолов*

*преподаватель*

*Джизакский государственный педагогический институт*

*Джизак, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Болото Нурота-Койташ, перевал Савулбель, горы Койташ, долина Сангзор, ландшафт, простые

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о принципах и методах, используемых при изучении

## KIRISH

Nurota-Qo‘ytosh botig‘i - Nurota tizmasi va Sangzor vodiylari oralig‘ida Shimoliy Nurota tog‘larining janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Botiqning sharqida Sangzor vodiysi, g‘arbda Savurbel dovoni joylashgan. Nurota-Qo‘ytosh botig‘ining shimoliy-sharqiy qismida Qo‘ytosh tog‘lari joylashgan.

Nurota-Qo‘ytosh botig‘i hududi va uning atrofi landshaftlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar L.N.Babushkin, N.A.Kogay (1964), T.D.Jumaboev (1968), L.A.Alibekov va S.A.Nishonov (1978), S.A.Nishonov (1984), N.R.Alimqulov (2009) ishlarida yoritilgan. L.N.Babushkin va N.A.Kogay 1964 yilda [17; 158–170-b.] O‘zbekiston hududini 10 ta tabiiy geografik okrugga, 40 ta rayonga va 66 ta landshaft xiliga ajratadi. O‘rganilayotgan obyektimiz Turkiston-Nurota okrugi Nurota rayoniga to‘g‘ri keladi. Ushbu hududda quyidagi 7 ta landshaft xilini ajratadi:

1. Sug‘oriladigan oddiy bo‘z tuproqlardan iborat lyosli tekisliklardagi madaniy landshaftlar;
2. Oddiy bo‘z tuproqlarda rang, qo‘ng‘irbosh o‘sadigan to‘lqinsimon (qirtepalikli) lyosli tekisliklar;
3. To‘q tusli bo‘z tuproqlarda bodomzorlardan iborat o‘rtacha balandliklardagi tog‘ yonbag‘irlarining quyi qismi landshaftlari;
4. Jigarrang tuproqlarda efemeroidli-dashtli kuchli parchalangan o‘rtacha baland tog‘ landshaftlari;
5. Jigarrang tuproqlarda archa o‘sadigan kuchli parchalangan o‘rtacha baland tog‘ landshaftlari;
6. Betaga va qo‘ziquloqlardan iborat o‘tloqi baland tog‘ landshaftlari;
7. O‘zlashtirilgan hududlardagi madaniy landshaftlar (Baratov P, 1996).

## ASOSIY QISM

T.D.Jumaboevning “Sangzor daryosi havzasining landshaftlari va qishloq xo‘jaligi yerlarining tiplari” mavzusida olib borgan tadqiqotlarida landshaftlarning balandlik mintaqalari bo‘yicha 5 ta zonaga (yarusga) ajratadi. Har bir landshaft zonasida yonbag‘irlar ekpozitsiyasi va qiyaligi bo‘yicha landshaft xususiyatlarining o‘zgarishini tahlil qiladi va ular doirasida qishloq xo‘jaligi yerlari tiplarining tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarini ochib beradi [32].

L.A.Alibekov va S.A.Nishonov Jizzax viloyati hududini 13 ta rayonga bo‘ladi. Baxmal tumani hududi Chumqortog‘, janubiy Morguzar va Sangzor tog‘ oraliq botig‘i rayonlariga to‘g‘ri keladi (Alibekov L, 1978). Shuningdek, 7 ta balandlik landshaft zonalari ajratiladi va shundan tadqiqot hududiga quyidagi 5 tasi bevosita mos keladi:

1. Qayir va qayir usti quyi terrasalarini o'z ichiga olgan Sangzor daryosi vodiysining terrasalari zonasi;
2. Rang-qo'ng'irboshli tog'oldi tekisliklaridan iborat subtropik chalacho'l zonasi;
3. Past tog'larning qirli-qator tepalikli chalacho'l va quruq dashtli subtropik zonasi;
4. Tik yonbag'irli o'rtacha balandlikdagi tog'larning o'tloq-dasht va dasht zonasi;
5. Baland tog'larning suvayirg'ich-qirra qoyatoshli o'tloq dasht zonasi [8;196–228-b.].

N.R.Alimqulovning [9; 15–120-b.] “Jizzax viloyati landshaft-ekologik sharoitini baholash” mavzusiga bag'ishlangan tadqiqotlarida Jizzax viloyati miqyosida 40 ta landshaft xili aniqlanib, ular asosida 1:500 000 masshtabli landshaft kartasi tuzilgan (Alimqulov N, 2009). Ushbu landshaft xillaridan quyidagi 5 tasi tadqiqot hududida ajratilgan:

1. Qiya, biroz to'liqinsimon akkumulyativ baland terrasalarda sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar mavjud tog'oldi tekisliklari landshafti;
2. Past-baland, unchalik parchalanmagan tog'oldi tekisliklarining bo'z tuproqlarida efemeroid-butali o'simliklar tarqalgan, ular rangqo'ng'irbosh, bir yillik sho'ralar bilan o'zaro almashinib keladigan, ba'zida yantoqlar uchraydigan tog' oralig'idagi tekislik va botiq landshafti;
3. O'rtacha qiyalikdagi yonbag'irlarida boshloqli, turli o'tli dashtlar, baland o'tloqlar va siyrak o'rmonzorlar bilan almashinib keladigan o'rtacha balandlikdagi tog' landshaftlari;
4. O'rtacha qiyalikdagi turli darajada parchalangan yonbag'irlarda turli o'tli bug'doyiqli va shuvoqli efemer bug'doyiqdan tashkil topgan dashtlar, betagali yoki shuvoqli bodomzorlar almashinib keladi, toshloq tuproqlarda daraxtlar va butazorlar, daryo o'zanlari sohilida tarqalgan o'rtacha balandlikdagi tog' landshaftlari;
5. Tik va o'rtacha qiyalikdagi kuchli parchalangan, yonbag'irlari siyrak archazorlar va baland tog' kserofitlari, tikanli o'tlar, butazorlar o'zaro almashinib keladigan, ba'zan qoyalar va chag'ir toshli baland tog' landshaftlari.

Nurota-Qo'tosh botiqlarining landshaft tadqiqotlariga oid maxsus adabiyotlarda [41, 60, 61, 72, 88, 92] yozilishicha landshaftlarni tadqiq etishda bir qancha prinsip va metodlarga amal qilinadi. Quyida tadqiqot ishlarimizda amal qilingan prinsiplar va foydalangan metodlarni yoritiladi.

*Ob'ektivlik prinsipi* landshaftlarning ob'ektiv mavjudligini tan olish, ushbu landshaftlarning chegaralarini aniqlash, tasniflash va kartaga tushirishda ob'ektiv yondashuvda o'z aksini topadi.

Bu prinsipga ko'ra Nurota-Qo'ytosh botiqlari va unga tutash hududlar landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishidagi ob'ektiv qonuniyatlarni tan olinishi, ajratilgan barcha landshaft tasnifiy birliklari ob'ektiv xarakterga ega bo'lishi, ya'ni ular tadqiqotning maqsadi va ahamiyati, tadqiqotchining hohishi yoki sub'ektiv qarashlariga bog'liq bo'lmasligi lozim.

*Komplekslilik prinsipi* eng muhim prinsiplardan bo‘lib landshaftlarning hosil bo‘lishidagi zonal va regional qonuniyatlar hamda omillarni bir vaqtda va o‘zaro teng hisobga olish bilan tavsiflanadi.

Nurota-Qo‘ytosh botig‘i va unga tutash hududlar landshaftlarini o‘rganish va kartaga tushirishda barcha komponentlarining mujassamligini, tabiiy sharoitning butun kompleksini hisobga olindi. Dastlab hamma joyda namoyon bo‘luvchi va har tomonlama ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy qonuniyatlar, so‘ngra regional va mahalliy omillar hamda qonuniyatlar hisobga olindi.

*Nisbiy bir xillik prinsipi* landshaftlarning bir-biridan uzoqdaligiga qaramasdan ulardagi umumiylik, o‘xshashlik, ya’ni tipologik xususiyatlarini e’tiborga olish bilan tavsiflanadi.

Ushbu prinsipga ko‘ra e’tibor tipologik landshaft birliklarining xususiy rayonlashtirish birliklaridan farqlashga imkon beruvchi xususiyatlariga qaratildi. Bu xususiyatlar landshaftlarni aniqlash, ajratish, tasniflash va amaliyotda foydalanishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Landshaftlarni tipologik birlashtirishda ularning sifatiiy o‘xshashligiga asoslanildi, ya’ni landshaftlar bir-biriga nisbatan qanday joylashganligi va ularning orasida hududiy bog‘liqliklar bor-yo‘qligiga qaramasdan ularni bir tipologik guruhga birlashtirildi. Tipologik landshaftlar bir tasnifiy pog‘onaga kiritiladi, lekin kartada ko‘pincha tarqoq, o‘zaro ajralgan bir necha konturlar bilan ifodalanadi. Bir vaqtning o‘zida landshaft tipologik birlik o‘zida asosan bir tipdagi landshaft tarqalgan yirik maydonni ham, yonma-yon yoki uzoqda joylashgan kichik, fragment holdagi uchastkalarini ham birlashtirishi mumkin. Landshaft tipologik birliklar ko‘pincha “teshik” yoki “yirtiq” bo‘lib, ularning o‘rtasida boshqa landshaft tipologik birliklari joylashishi mumkin.

*Genetik-tarixiy prinsipining* mohiyati shundaki, hududning tabiiy geografik tabaqalanishi qanday ro‘y bergan, landshaftlar qachon va qaysi omillar hisobiga paydo bo‘lgan, ularning ichki genetik umumiyligi qay darajada ekanligi kabilarni aniqlashdan iborat. Landshaftlarning shakllanishi uzoq jarayon bo‘lib, har bir landshaft – landshaft hosil qiluvchi turli omillarning o‘zaro harakatlari yuz bergan va ularning nisbati bir necha bor o‘zgarishi mumkin bo‘lgan uzoq tarixiy (paleogeografik) rivojlanishning mahsulidir.

Ushbu prinsip landshaft tipologik kartalashtirishda universal ahamiyat kasb etib, Nurota-Qo‘ytosh botig‘i va unga tutash hududlar rivojlanishining umumiyligida namoyon bo‘ladi. Nurota-Qo‘ytosh botig‘i va unga tutash hududlar rivojlanish tarixi hozirgi landshaft tuzilmasida o‘z ifodasini topgan. Rivojlanish jarayoni hududning turli qismlarida katta tafovutga ega bo‘lgani bois, ushbu yagona genetik asosda kelib chiqishi va rivojlanish tarixiga ko‘ra bir qancha landshaft tiplarining shakllanishi ro‘y bergan. Masalan, tektonogen – tog‘lik va tektonik botiq landshaftlari; klimatogen – o‘tloq-dasht, cho‘l landshaftlari va h.k.

*Kartografik metod.* Landshaftlarni o'rganishni umumgeografik (topografik va obzor) va mavzuli – geologik, geomorfologik, gidrologik, iqlimiy, tuproq, geobotanik, zoogeografik kartalarni tahlil va taqqoslashdan boshlandi. Topografik kartalarni o'rganish bilan landshaftlar haqida dastlabki muhim ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topografik kartani izchil o'rganib hudud landshaftlarining ko'pgina xususiyatlarini aniqlash, ularning chegaralarini oydinlashtirish mumkin.

Geologik, geomorfologik, tuproq, geobotanik va boshqa maxsus kartalar tipologik mazmunga ega, shuning uchun relief, tuproq va o'simliklarning tip va kichik tiplari tadqiqotning dastlabki bosqichlarida yirik masshtabli topografik asosda taxminiy landshaft karta-gipotezani tuzish uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida, ushbu landshaft karta-gipoteza ajratilgan landshaftlarning konturlari mazmunan fond materiallaridagi ma'lumotlar va foydalangan kartalarimizdagi konturlar bilan mos kelmay qolgan holatlarni aniqlab, dalaga chiqib oydinlik kiritish uchun marshrutli ekspeditsiyalar yo'nalishlarini aniqlashda, tayanch nuqtalari va kuzatuv uchastkalari o'rnini tanlashda muhim asos vazifasini bajardi.

*Aerokosmik metod* landshaftlar haqida ma'lumot olish, ularni o'rganish va kartalashtirishda juda muhim metodlardan hisoblanadi. Kosmik sur'atlarda Nurota-Qo'tosh botig'i va unga tutash hududlarlandshaftlarining hududiy tarqalishi, xilma-xilligi yaqqol ko'rinadi. Landshaftlarning Nurota-Qo'tosh botiqlarining ta'sirida o'zgarganligi va o'zgarish areallarinisuratlardan foydalanib aniqlash ishni tezlashtirdi. Kosmik suratlar bir vaqtning o'zida butun hududni va turli landshaftlarda bo'layotgan jarayonlarni aks ettiradi, bu esa landshaftlarning dalada har doim ham aniqlashni iloji bo'lmagan chegaralari, ularning miqdor va sifatiiy xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Turli vaqtda olingan kosmik suratlarini taqqoslab landshaftlarning tabiiy geografik jarayonlar va Nurota-Qo'tosh botiqlarining ta'sirida o'zgarishi, uning jadalligi hamda boshqa ma'lumotlarni oldik. Ayniqsa, Google kompaniyasining *Google earth.com.* saytidagi kosmik suratlardan foydalanib hududdagi istalgan landshaft haqida tez va aniq ma'lumotlar olindi.

*Tabiiy geografik birliklarni dalada aniqlash metodi* eng muhim metodlardan bo'lib, dalaga chiqqan vaqtda yuqoridagi metodlardan foydalanib tuzilgan taxminiy landshaft karta-gipotezada ajratilgan tipologik landshaftlar va ularning chegaralariga oydinlik kiritildi. Butun landshaftning sifatiiy o'zgarishi namoyon bo'ladigan va tabiatining xususiyatlari yo'qola boradigan hamda boshqa landshaftning belgilari namoyon bo'la boshlagan yerlar landshaft xillarining chegarasi deb olindi.

Dala tadqiqotlari vaqtida maqsadga qarab dastur bo'yicha bir qancha ishlar olib borildi: landshaftning geografik o'rni, maydoni va chegaralari; landshaft komponentlarining xususiyatlari va ularning o'zaro aloqalari; landshaftdagi tabiiy va antropogen jarayonlar; landshaftga antropogen

omil ta'sirining xususiyati va ko'lami kabilarni o'rganish. Bunda maqsad va vazifaga qarab bir qancha dala tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### XULOSA

Dala tadqiqotlari davomida tayanch tajriba uchastkalarida landshaftlar va ularning komponentlari yuqorida ko'rib o'tilgan bir necha prinsip va tadqiqot metodlaridan foydalanilgan holda o'rganildi. Tadqiqotlar jarayonida meteorologik asboblardan harorat, namlik, bosim va shamolning sutkalik, oylik va fasliy o'zgarishlarini kuzatildi va fond materiallari bilan taqqoslab, aniqlik kiritildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXARI

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Природные ресурсы и ресурсы Джизакской области. –Т.Ўзбекистан, 1978.
2. Алимкулов Н.Р. Регионал тоғ-кон саноат комплексларининг экологик шароитга таъсири. (Жиззах вилояти мисолида). Табиатдан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг географик асослари. – Наманган: 2010, 114 бет.
3. Ғўдалов М.Р. Жиззах вилояти табиатини муҳофаза қилиш. Тошкент: “Фан ва технология”, 2014
4. Ғўдалов М.Р., Мухамедов О.Л. Табиатни муҳофаза қилиш: муаммо ва ечимлар. Гулистон, 2021.
5. Gozieva, M., Gudalov, M., & Ismatova, Z. (2021). Development of Tourism in the Zaaminsuv Basin Depending on the Altitude Regions. Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias, 11(3), 1079-1086.
6. Mirkomil, G., Bakhtiyor, Z., & Dilfuza, I. (2020). Predicting Changes In Landscapes Around The Aydar-Arnasay Lake System. The American Journal of Engineering and Technology, 2(10), 6-12.